ELASTOGRAFIK TEKSHIRUV USULINING JIGAR SIRROZI TASHXISIDAGI O‘RNI

M.U.Nodirbekova, A.U.Avezov, G.Y.Aytimova

Urganch Davlat tibbiyot instituti

Jigar sirrozi- jigarning surunkali kasalligi bo’lib, tiklanmas ravishda jigar parenximatoz to’qimasining fibroz biriktiruvchi to’qima yoki stroma bilan almashininishi bilan kechadi. Fibroz belgilarini tekshirish PGA indeksi, yupqa igna biopsiyasi va Metavir shkalsidan va sensorli maxsus Fibroscan apparatdan foydalaniladi. U orqali ultratovushli tebranishlar o'tadi, organning to'qimalari tomonidan aks ettiriladi, bezning elastiklik darajasini ko'rsatadi. Ushbu maqola jigar sirrozini tashxislash va funksional holatini tez va aniq baxolashda elas-tometriya usuli kerakligini ko’rsatadi. Jigarning elastometriyasi diagnostika usuli sifatida tobora ommalashib bormoqda.

Mavzuning dolzarbligi. Jigar sirrozi - hozirgi kunda eng dolzarb muommolardan biri xisoblanadi. Jigar sirrozining kelib chiqishining asosiy etiologik sababi spirtli ichimliklarni ko’p iste’mol qilish, B,C virusli gepatitlar, ortiqcha vazn va semirish bilan bog’liq metobolik sindromlardir. Surunkali gepatit B tashxisi qo’yilgan aholi ulishi 0.5%dan 0.7%gacha o’zgarib turadi. Jigar to’qimasini morfologik tekshirish fibroz bosqichini baxolashga imkon beradigan asosiy tekshiruv usuli xisoblanadi.

Jigar elastografiyasi – jigar to‘qimalaridagi rivojlanayotgan fibroz va sirroz darajasini og‘riqsiz va invaziv bo‘lmagan usulda aniqlash texnologiyasidir. Ushbu usul maxsus ultratovush to‘lqinlari yordamida to‘qimalarning elastikligini o‘lchab, kasallikning qanchalik rivojlanganini tezkor va aniq ko‘rsatib beradi.

Tadqiqot maqsadi: turli etiologik jigar kasalliklarida fibroz darajasini aniqlashda ultratovush elastometriyasining ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Material va tadqiqot usullari: Viloyatning shahar va tuman hududlaridan 2021-2025-yillar davomida tanlab olingan 20 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lgan 96 nafar bemor (36(37,5%) nafar ayol va 60(62,5%) nafar erkak) tadqiqotga jalb qilindi. Ishtirokchilarning o‘rtacha yoshi 42,5 ±15,4 yoshni tashkil etdi. Tadqiqot uchun alkogolli jigar sirrozi bilan 45(46,8%) (shulardan 28(29,1%) nafar erkak, 17(17,7%)nafar ayol)nafar bemor va virusli etiologiyali jigar sirrozi bilan 51(53,1%)(shulardan 32(33,3%) nafar erkak, 19(19,8%) nafar ayol) nafar bemor (taqqoslash guruhi) tashkil etib, ($p<0,05$),

bu erkaklar orasida alkogolli hamda virusli gepatitlardan keyin rivojlanadigan jigar sirrozining uchrash chastotasi sezilarli darajada yuqori ekanligini ko‘rsatadi. UTT tekshiruvlari asosan “ULTRA VEDA” xususiy klinikasiga murojaat qilgan bemorlar Chison CBit 10 va Mindrey Consona 7 apparatlarida 7,5–10 MHz chastotali datchiklar yordamida tadqiqot ishlari o‘tkazildi.

Sezgirlik va o‘ziga xoslik uchun haqiqiy ijobiy, haqiqiy salbiy, yolg‘on ijobiy va yolg‘on salbiy natijalar, ijobiy va salbiy bashorat qiymatlarining ehtimollik nisbatlaridan foydalanildi. Mazkur uslubning diagnostik aniqligini baholash uchun egri chiziq ostidagi maydonni hisoblash bilan tahlili amalga oshirildi. Youden indeksi yordamida sezgirlik va o‘ziga xoslikning maksimal ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan elastometriya uchun chegaraviy qiymatlar aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra 96 nafar ishtirokchining jigaridagi fibroz o‘zgarishlar o‘rganildi. Ular orasida erkaklar 36(37,5%) nafarini ayollar va erkaklar 60(62,5%) nafar nafarni tashkil etdi ($p<0,05$) va bu ayollar orasida fibroz kasalliklar uchrash chastotasi erkaklarga nisbatan sezilarli ravishda kam ekanligi, erkaklar orasida esa mazkur ko‘rsatkich anch yuqori ekanligini ko‘rsatadi.